



1-2 SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Rashidova Mehriya Muzaffarovna

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim ona tili fanini o'qitish jarayonida, o'quvchilarning darsga nisbatan qiziqishlarini orttirishga, qaratilgan innovasion texnologiyalardan keng foydalanishning samarali usullari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiyalar, ijodkorlik, samarali natija.

Hozirgi davrga kelib, umumta'lim maktablarda darslarni tashkil qilishning noan'anaviy usullaridan foydalanishning afzalliklari har bir zamonaviy pedagog o'qituvchi tomonidan e'tirof etilmoqda. 1950-yillarga kelib, AQSHning Garvard universitetida ilk pedagogik texnologiyalardan foydalanib, dars o'tish sinab ko'rildi. Ayni paytda O'zbekistonning ta'lim maskanlarida ham turli interfaol metodlardan qo'llash o'qituvchilarning kundalik ish rejimiga aylanib ulgurgan.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida quyidagi interfaol usullarni qo'shimcha mashqlar bajarishda pedagoglarimiz oldingi bir necha yillar foydalanishardi:

- Aqliy hujum metodi;
- Muammoli ta'lim metodi;
- Kichik guruhlarda ishlash metodi.

Ushbu noan'anaviy interfaol usullar yordamida o'quvchilarga qo'shimcha mashqlar bajartirganaimizda o'qish-o'rgatish jarayonini yaxshi o'zlashtirishga olib keldi. O'z vaqtida aloqani tikladi. Motivatsiya yuqori darajada bo'lishini taminladi, o'tilgan materialni puxta



xotirada saqlab qolishga imkon berdi. Mustaqil fikrlay oladigan o'quvchining shakllanishiga yordam berdi.

Aqliy hujum interfaol metodidan foydalanganimizda o'quvchilarga mashq shartidan kelib-chiqib o'quvchilar aqliga hujum qilinadi, o'quvchilarda fikr va g'oyalar tug'iladi. Bu fikr va g'oyalarni umumlashtirib, yagona, to'g'ri xulosa chiqariladi.

Muomli ta'lim interfaol usulidan foydalanib, o'quvchilarga o'tilgan mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni vujudga keltirib, ularning ushbu muammoli vaziyatni bartaraf etishlarini so'radik. Masalan, quyidagi muammoli vaziyat yuzaga keldi; Gaplarda tushub qolgan kim? va nima? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni topib, nuqtalar o'rniga qo'ying, gaplarni ko'chiring.

1. O'quvchilarni sevib o'qishadi.
2.g'o'zaga suv quymoqda .
3. Oshpaz qozonga gurunchni solib, ..ni damladi.
4. mashinani tez haydab ketdi.
5. Bog'dan gullar uzib, yasadim.

O'quvchilardan ushbu muammoni hal qilib berishni so'raganimizda, ular nuqtalar o'rniga gap mazmuniga mos so'zni qo'yib, biz o'rta tashlagan muammoni bartaraf eta oldilar. Ushbu interfaol metod o'quvchilarni fikrlashga, muammoni qanday yechim, bartaraf etish choralarini o'ylashga, fikr va xulosalar chiqarishga, o'z fikr va mulohazalarini erkin bayon eta olishga katta yordam berdi.

Kichik guruhlarda islash interfaol metodidan dars jarayonida kengroq foydalanish kerak, chunki ushbu metod o'quvchilarni dars davomida quvnoqroq bo'lishiga, kayfiyatlarini yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Mavzuni mustahkamlashda mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarishdan oldin, sinf o'quvchilarini uch kichik guruhlariga bo'lib olinadi. O'quvchilarning taklif, istak va talablarini hisobga olgan holda kichik guruhlar nomlanadi. O'quvchilarga ushbu kichik guruhlar o'rtasida "Kim epchil, chaqqon va bilimdon" deb nomlangan musobaqa o'ynashimizni aytib, musobaqa sharti ularga



tanishtiriladi. So'ng har bir kichik guruhdan bittadan o'quvchini doskaga chiqarib, berilgan mavzuga oid qo'shimcha mashqni shartiga ko'ra bajarish buyuriladi. Mashq bajarib bo'lingandan so'ng g'olib va mag'lub jamoalarga tegishli ballarni qo'yib, ushbu ballar izohlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari kichik guruhlarda ishlash interfaol usuli yordamida mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarganlarida erkin harakat qildilar, jamoalar g'alabasi uchun kurashdilar, mashqni tez va sifatli bajarishga harakat qildilar.

Bugungi shiddat bilan o'sayotgan zamonda pedagoglarimiz ona tili darslarida quyidagi zamonaviy metodlardan foydalanilsa dars samaradorligi oshadi.

Jumladan: "Qadamli soat" metodini ona tili darslarida asosan o'quvchilarga mustahkamlash bosqichida "Joy nomlarini bildiradigan so'zlar" mavzusini o'tganda qo'llasak, 2 o'quvchi 2 soat millarini tanlab, so'ng biri shaharlar nomini biri daryolar nomini aytib harakatlanishni boshlaydi. Soat millari nechchini ko'rsatsa shuncha so'z yoddan aytishi lozim. To'g'ri, xatosiz aytgan o'quvchilar g'olib deb topiladi.. (Ona tili 1-sinf II qism 1-mashq 36-bet Toshkent 2023-y)

Oq terakmi ko'k terak? Metodini 2-sinf Onatili I qism 28-betdagi 19-mashq asosida o'tkazsak sinf ikki guruhga bo'linib, har ikki guruh 5 tadan so'z tuzadi, so'ng tuzilgan so'zlardagi unli harflarni tushurib, qog'ozga yozib, guruhlar o'zaro bir biroviga beradi. So'ng "Oq terakmi ko'k terak bizdan sizga qaysi unli kerak?" deb so'raydi. Guruh birinchi so'z uchun kerakli unlilarni 15 soniya ichida aytishi lozim.

"Qaynoq mikrafon" metodini Ona tili 1 sinf II qism 80-bet 1-mashqni bajarishda qo'llasak yaxshi samara beradi.

-Necha yoshdasiz?

-Nechanchi sinfda o'qiysiz?

-Sizning sinfxonangizda nechta parta bor?

-Siz nechanchi qatorning nechanchi partasida o'tirasiz?

Savollarga javob yozing. Javobdagi sanoq va tartibni bildirgan so'zlar tagiga chizing, topshirig'ini bir o'quvchini tanlab, uni muxbir qilib qo'liga mikrafon berib, partada o'tirgan



o‘quvchilar oldiga borib, yuqoridagi savollarni berib ularning javoblarini eshitib, munosabat bildirsa, o‘quvchilar o‘z fikrlarini intervyu orqali taqdim etishsa, o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin bayon qilishga o‘ganishadi, og‘zaki nutqi rivojlanadi.

“1 daqiqa metodi”ni har bir ona tili darsida o‘tilgan mavzuni so‘rashda, yangi mavzuni mustahkamlashda qo‘llasa bo‘ladi. Bu metod o‘quvchilarni diqqatini jamlab, fan uchun fikrlashni boshlaydi.

Maslan, Ona tili 1-sinf I qism 29-betdagi Unli tovushlar mavzusidagi 3- mashqni bajarishda avvalo butun sinfni o‘qituvchi o‘ziga qaratib, 1 daqiqa ichida A va O unlisi bilan boshlanadigan ismlarni sanab bering? topshiri g‘ini bayon etadi. O‘quvchilar barchasi unli tovushlarni eslab, ismlar aytishni boshlaydi, Qayta takrorlangan ismlar hisobga olinmaydi. To‘g‘ri va tez aytgan o‘quvchi rag‘batlantiriladi.


“Tovushlar charxpalagi” metodi 1-2 sinf o‘quvchilarini bitta tovush bilan farqlanadigan so‘zlarni o‘rgatishda juda yaxshi qo‘l keladi. Unda o‘quvchilar mustaqil izlanib, har bir tovushni qo‘z o‘rniga qo‘yib talaffuz qilishni hamda yangi so‘z hosil qilishni o‘rganishga zamin tayyorlaydi. Hamda o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘ladi.

Misol uchun Ona tili 1- I qism 44-betdagi Q undosh tovush va harflari mavzusidagi 1-mashqda nuqtalar o‘rniga q yoki g‘ harflaridan mosini qo‘ying.

to... , bo...., qishlo....

Ona tili 2-sinf I qism 12- betdagi 8-mashqda ham bitta tovush bilan farqlanadigan so‘zlar yozing. Topshirig‘i berilgan. O‘quvchi bu topshiriqlarni bajarishda undosh tovushlarni yaxshi o‘rganib, ular orqali yangi so‘zlar tuzish mumkinligini o‘rganadi. Ayrim so‘zlar bitta tovush bilan farqlanishini o‘rganadi.

“Pantamimiya” metodi ham bugungi kun o‘quvchilarini darsga qiziqishiga katta yordam beradi. Aynan Ona tili 2-sinf I qism 22-betdagi 7- 8 mashqlarni bajarishda sinf




va G‘



o'quvchilarini 2 guruhga ajratib, jamoa bo'lib o'tkazilsa ham bo'ladi. 7- mashqda o'quvchilar rasmdagi qizlarning lab harakati va holatiga qarab unli harflarni topishadi.

8- mashqda esa rasmdagi hayvonlarni nomini ovozsiz aytishlari kerak bo'ladi.



Boshlang'ich sinflarda mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarish, ayniqsa, mashqlarni interfaol dars metodlari yordamida bajarish o'quvchilarni mavzuni puxta egallashlarida, o'zbek tilining o'ziga xos grammatikasini o'rganishda juda ham katta ahamiyatga ega. Xususan, boshlang'ich ta'lim darslarida texnika vositalari va interfaol metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarga taqdim etilayotgan yangi materialni osonroq yetkazishni ta'minlashga erishiladi. Buning uchun matn puxta tanlanadi. Tilni o'rganish jarayonida leksik-uslubiyishlarga katta o'rin beriladi. Darsda she'r, soddalashtirilgan matnlar bilan birga, yuksak badiiy matnlardan ham foydalaniladi. Ona tili o'qitish jarayoni o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga qaratiladi. Ona tili darslari har bir kishi uchun zarur bo'lgan vatanparvarlik, mustaqillik, tashabbuskorlik sifatlarini



tarbiyalash hamda rivojlantirishda har bir pedagog bugungi kun talabi doirasida yondashishi, innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlikhar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak// Xalq so'zi, 2017.
2. Hojiev A. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va So'z yasalishining nazariy masalalari. - T., 2010.
3. Maxmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis. -T., 1995.
4. Ona tili darsligi 1- sinf I-II qism Toshkent 2023
5. Ona tili darsligi 2- sinf I-II qism Toshkent 2023
6. Hamroyev, A. R. (2021). Designing students' creative activity in primary school mother tongue education as a methodological problem. Middle European Scientific Bulletin, 11.
7. Khamroev, A. (2021). Quality and effectiveness for design of learning outcomes in the language teaching. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 549-558.
8. Khamraev, A. R. (2019). Modeling Teacher's Activity in Designing Students' Creative Activities. Eastern European Scientific Journal, (1).
9. YARASHOV, M. (2022). Characteristics of International Integration of Sciences in Primary Schools. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 23(23).
10. Ярашов, М. Д., & Хамдамова, Х. (2022). МЕТОДИКА РАБОТЫ НАД РЕЧЬЮ УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(9), 138-143.
11. Yunus, Y., & Yarashov, M. (2023). Effectiveness of experimental work aimed at forming general labor skills in students based on gender equality and differences. In E3S Web of Conferences (Vol. 420, p. 06011). EDP Sciences.



12. Yunus, Y. S. (2022). MODERN APPROACH TO TEACHING ELEMENTS OF ALGEBRA IN PRIMARY CLASS MATHEMATICS LESSONS. Scientific Impulse, 1(5), 774-780.
13. Yunus, Y. S., & Hikmatovna, N. M. (2022). WAYS OF EFFECTIVE USE OF EDUCATIONAL METHODS AND TOOLS. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(9), 148-152.
14. Jobir o'g'li, Y. M., & Maftuna, S. (2022). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TA'LIM MAZMUNINING TAVSIFI. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(9), 144-147.
15. Jobirovich, Y. M. (2023). BUILDING COMPETENCES IN ORGANIZING PRIMARY EDUCATION CONTENT USING DIGITAL TECHNOLOGIES. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(5), 763-766.
16. Jobirovich, Y. M. (2023). EXPRESSION OF DIDACTIC GAMES IN PRIMARY EDUCATION THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(5), 93-97.